



TA'LIM JARAYONINI TASHKIL ETISHDA INTERFAOL METODLARNING AHAMIYATI

Mardonqulova Sevinch Obidjon qizi

*Samarqand davlat chet tillar instituti Sharq tillar fakulteti,
O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 2-bosqich talabasi*

"Ta'limsiz tarbiya yo'q, tarbiyasiz esa metodning foydasi yo'q."

Abdulla Avloniy

Annotatsiya: Mazkur maqolada ta'lim jarayonida interfaol metodlardan samarali foydalanish masalalari tahlil qilingan. Xususan, tilshunoslik fanlarini o'qitishda interfaol yondashuvlarning o'quvchilar bilimini mustahkamlash, mustaqil fikrlashni rivojlantirish va kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirish va rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit So'zlar: Interfaol metod, innovatsion ta'lim, tilshunoslik, muloqot, muammoli ta'lim, kompetensiya, tahliliy fikrlash.

Kirish. Bugungi globallashuv davrida ta'lim jarayonini zamonaviy usullar asosida tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi. An'anaviy ta'lim usullari o'quvchilarning faqat tayyor bilimlarni qabul qilishiga yo'naltirilgan bo'lsa, interfaol ta'lim metodlari esa ularni bilim jarayonining faol ishtirokchisiga aylantiradi. O'quv jarayonida interfaol metodlardan foydalanish o'quvchi va o'qituvchi o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytiradi, ta'lim bir yoqlama emas, balki u ikki taraflama hisoblanadi. Unda ham o'quvchi ham o'qituvchi ishtiroki inobatga olinadi. O'qituvchi o'zining pedagogik mahorati orqali faol muloqotga asoslangan tizimga aylantiradi, o'quvchilar ishtirokini faollashtiradi. Jumladan, tilshunoslik fanlari — fonetika, leksikologiya, morfologiya, sintaksis kabi sohalarni o'qitishda ta'limning interfaol usullaridan unimli foydalana olsak, bu metodlar ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi desak, mubolag'a bo'lmaydi.

“Interfaol” atamasi “o'zaro ta'sir” degan ma'noni bildiradi. Demak, interfaol metodlar — bu o'quvchi va o'qituvchi faol ishtirokida, muloqot va hamkorlik asosida bilim olish, rivojlantirish jarayonidir deyish mumkin. An'anaviy darsda o'qituvchi asosiy axborot manbai bo'lgan. Hozirgi kunga kelib, faollikni o'quvchilardan ham talab qilmoqdamiz. Sababi bu orqali interfaol darsda o'quvchi ham faol ishtirokchi, bilim izlovchi va yaratuvchiga aylanadi.

Tilshunoslikda esa interfaol metodlardan foydalanish o'quvchilarda tahliliy, ijodiy va erkin fikrlashni rivojlantiradi, nutq madaniyatini oshiradi, til



hodisalarini hayotiy misollar asosida o'rganish imkonini beradi. Tilshunoslik fanlarida quyidagi interfaol metodlar foydalansak, ta'lim sifati va samaradorligi yanada ortadi:

“Aqliy hujum” (brainstorming) – yangi g'oyalar ishlab chiqish va muammoga turli nuqtai nazardan yondashish imkonini beradi. Masalan, “Shevalar va adabiy til o'rtasidagi farqlar” mavzusida o'quvchilar erkin fikr bildiradilar.

“Klaster” – til birliklari o'rtasidagi semantik va grammatik aloqalarni vizual tarzda ifodalash uchun qulay hisoblanadi.

“Insert” – matn bilan ishlashda “bilaman – bilishni xohlayman – bildim” sxemasiga asoslanadi; bu metod o'quvchilarning mustaqil fikrlashini rag'batlantiradi.

“Jamoaviy ish” – kichik guruhlarda ishlash orqali bilimlarni mustahkamlashda xizmat qiladi.

“Munozara va bahs-munozaralar” – o'quvchilar muayyan mavzuda o'z fikrlarini bayon qiladi va asoslaydi.

“Debat” yoki “Munozara” – fonetika, til siyosati, leksik birliklarning o'zgarishi kabi mavzularda tahliliy fikr yuritishni shakllantiradi.

“Juftlikda ishlash” va “Guruhli ish” – muloqot madaniyatini, jamoaviy hamkorlikni o'rgatadi.

Tilshunoslik fanlarida bu kabi interfaol metodlardan foydalanish o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishini oshiradi, dars jarayonini jonlantiradi, til hodisalarini amaliy misollar orqali o'zlashtirish imkonini yaratadi, o'quvchi shaxsini markazga qo'ygan ta'limni ta'minlaydi. Masalan, morfologiya darsida “So'z yasalishining turli usullari” mavzusida guruhli tahlil ishlari, leksikologiyada esa “Sinonim va antonimlarning uslubiy imkoniyatlari” mavzusida interfaol munozaralar o'tkazish katta natija beradi. Undan tashqari bu kabi metodlar o'quvchilarning aqliy mahoratlarini bilib olish va amaliy qo'llash uchun ham imkoniyat yaratadi. Shu bilan bir qatorda dars jarayonida shaxsiy qarashlarini ikkilanmay bayon etishda, muammoli vaziyatlarda yechimlarni birgalikda izlashda, o'quv materiallarini o'zlashtirishda o'quvchilarning o'zaro yaqinliklarini yuzaga keltirishda, o'qituvchi-o'quvchi-o'quvchilar guruhining o'zaro bir-birlarini hurmat qilishlari, tushunishlari va qo'llab quvvatlashlarida, samimiy munosabatda bo'lishlarida, ruxiy birlikka erishishlarida ham qo'l keladi. Bu metodlardan ta'lim jarayonida foydalanish hozirgi rivojlanayotgan, ya'ni taraqqiyot sari ketayotgan bir davrda juda katta ahamiyatga ega. Ulardan ta'lim jarayonida foydalanish o'quvchilarni darsdagi faoliyatlarini faollashtiradi hamda qiziqishlarini kuchaytiradi. Interfaol metodlar ham uzluksiz ta'lim sohasidagi islohotlardan biri deb hisoblashimiz mumkin.



Xulosa. Xulosa qilib aytganda, interfaol metodlar ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishda, o'quvchi shaxsini faol subyekt sifatida shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Tilshunoslikni o'qitishda bunday metodlardan oqilona foydalanish o'quvchilarning nafaqat nazariy bilimlarini, balki amaliy nutq madaniyatini, tahliliy fikrlash salohiyatini ham rivojlantiradi.

Interfaol metodlardan foydalanish natijasida o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida samarali muloqot shakllanib, bilim olish jarayoni yanada qiziqarli va samarali kechadi. Bu esa o'quvchilarning motivatsiyasini oshirish bilan birga, ularning amaliy ko'nikmalarini shakllantirishga yordam beradi. Shu sababli, ta'lim jarayonida interfaol usullardan foydalanish zarurati kun sayin ortib bormoqda va bu kelajak ta'lim tizimining rivojlanishida muhim omil hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ta'lim tizimini modernizatsiya qilish to'g'risida"gi qarori.
2. Hasanboyeva O., Rasulova D. Pedagogik texnologiyalar va interfaol metodlar. – Toshkent, 2021.
3. Jo'rayev M. Tilshunoslik asoslari. – Toshkent, 2020.
4. Xodjayeva M. Innovatsion ta'lim jarayonlari va ularning samaradorligi. – Samarqand, 2019.